


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70210802 - San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni
ta'mirlash magistratura mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" 08 dagi 277 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. Umumiy tavsifi

70210802 - San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70210802 – San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Ixtisoslashtirilgan san'at va dizayn maktablarida, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi hamda uning hududiy boshqarmalari, ta'mirlash ustaxonalari, viloyat, shahar, tumanlardagi muzeylar va me'moriy obidalarda san'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at va dizayn maktablarida pedagogik faoliyat;

– Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- Davlat va nodavlat tashkilotlari ichki va tashqi inshootlari;
- O‘zbekiston Badiiy akademiyasi qoshidagi badiiy ijodkorlar uyushmasi;
- xususiy ishlab chiqarish birlashmalari;
- madaniy meros obe’ktlari;

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70210802 - *San’at asarlari va me’moriy yodgorliklarni ta’mlash* mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilish;

mutaxassislikka oid Respublika va xorijda chop etilgan ilmiy manbalarni o‘rganish;

soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

xorijiy va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiya, seminar, tasviriy va amaliy san’at festivallari, biennale va ko‘rgazmalarda faol ishtirok etish;

ilmiy ish yaratishda sohaga doir dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy o‘rganish bo‘yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo‘lish;

soha bo‘yicha ilmiy-texnik axborotlarni, ta’mlash texnologiyalari bo‘yicha respublika va xorijda chop etilgan ilmiy manbalarni o‘rganish;

bajarilayotgan amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

OAK tasarrufidagi xorijiy va respublika ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mlash bo‘yicha amaliy san’at sohasida zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha loyihalash, texnologik jarayonlarini ishlab chiqish;

soha bo‘yicha yuksak badiiy-estetik ko‘rinishga ega shakllarni yaratishi va loyihasini ishlab chiqish;

me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mlash ishlarida texnik-texnologik smeta va hisob-kitoblarni qila olish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni tayyorlash;
me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlashda kompozitsiyalarini loyihalash va kompozitsiya turlarini ishlab chiqish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratishi va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallashi;

elektron o'qitish usullarini egallashi;

oliy va professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda soha bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tahlil qilish;

sohaga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish kobiliyatiga ega bulishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, uz ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va taxlil qilishi,

ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy xujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash kunikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va axamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va taxdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir kilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyixalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlashda va konservatsiya xamda rekonstruksiya loyixalarni hal etish;

izlanish jarayonida me'moriy yodgorliklar va uning badiiy qiyofasining asl ko'rinishini ifodalash;

daliliy xujjatlardan to'g'ri va unimli foydalana olish, analogiya (o'hshash)manbalardan yodgorlikning birlamchi ko'rinishini,shaklini va bezaklarini asl holatini aniqlash va usullar qo'llash;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyixalarda ishtirok etish uchun loyixa tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4.Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1680	56	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	RvChBY1316	Rangtasvir va chizmatasvirda badiiy yechim	480	16	1,2,3
1.04	TL1316	Ta'mirlasda loyihalash	480	16	1,2,3
1.05	TAshIsh 1316	Ta'mirlasda ashyolarda ishlash	480	16	1,2,3
2.00		Tanlov fanlar	300	10	2,3
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	2,3
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi, ta'mirlovchi rassom			
		Jami	1980	66	
3.00.		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kulol, angob, loy, glazur, proeksiya, sir, shamot, aksonometriya, bezak, rapport, xajmiy-fazoviy yechim, fiksatsiya, umumiy, yaxlitlik, qoralama, eskiz, karton, dinamika, statika, dinamika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, axromatika, xromatika, kompozitsion yechim, kompozitsion joylashuv, mozaika, mayolika, terrakota, kundal, ganch, naqqoshlik, geometrik tahlil, fazoviy chuqurlik, siluet, refleks, etyud, faktura, kolorit.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti



Rektor

Mirzoraximov

A.Mirzoraximov

2024-yil " " ✓

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



Rektor

Sayfullayev

N.Sayfullayev

2024-yil " "

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor *M.Boltabayev*



2024 yil " "

M.O'

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais *A.Nuridinov*



2024 yil " "

M.O'

YTT "Shernazarov Shamsiddin
Mahmadqulovich"
Rahbar *Sh.Shernazarov*

2024 yil " "

M. O'.

